

“QUTADGU BILIG”DAGI FRAZEMALARNING SEMANTIK TASNIFI**Abdullayeva Vazira Quronovna***Qo‘qon Universiteti katta o‘qituvchisi**abdullayeva16@gmail.com Tel: 93-0434579***Annotatsiya**

Maqolada “Qutadg‘u bilig”ning ilk badiiy doston, olam manzarasi obrazli, ta’sirchan ifodalangan matn sifatidagi xususiyatlari tavsiflangan. Asar matnidagi frazemalarning semantik tasnifi keltirilgan. Xalq e’tiqodi, dunyoqarashi, inson tafakkuri, dunyoqarashi, ruhiyatini ifodalashdagi ahamiyati ko‘rsatilgan. Frazemalarning barqaroor birikma sifatida ko‘chma ma’noga asoslanishi, kognitiv konnotatsiyani namoyon qilishi misollar orqali tahlil qilingan. Pandnoma matnidagi frazemalarning hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabati ko‘rsatilgan. Frazemalar tahlili asosida Yusuf Xos Hojibning til imkoniyatlaridan foydalanish, iboralarni qo‘llash mahorati ochib berilgan. Tarixiy frazemalarni tahlil qilishning ahamiyati, tilning tarixiy taraqqiyotini aks ettirishdagi o‘rni, madaniy qadriyatlarni aks ettirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *ilk badiiy doston, pandnoma, tabdil, frazeologizm, frazema, obrazlilik, ta’sirchan uslub, tilning tarixiy taraqqiyoti, semantik tasnif, barqaror birikma, ko‘chma ma’no, metafora, kognitiv metafora, kognitiv konnotatsiya, qadriyat.*

Abstract

The article reveals the features of "Kutadgu Bilig" as the first artistic epic, a text with a figurative and impressive depiction of the world scene. A semantic classification of phrases in the text of the work is given. Its significance in expressing popular faith, worldview, human thinking, worldview, and spirit is shown.

The examples analyze the basis of the figurative meaning of the phraseological unit as a stable combination, the manifestation of cognitive connotation. The connection of the phraseological unit in the text of the treatise with the modern Uzbek literary language is shown. Based on the analysis of phraseology, the mastery of Yusuf Khosa Khadhib in the use of linguistic possibilities and the use of expressions is revealed.

The importance of the analysis of historical phrases, the role of language in reflecting historical development, and the possibility of reflecting cultural values are substantiated.

Key words: first artistic epic, pandoma, metamorphosis, phraseological unit, word combination, imagery, expressive style, historical development of language, semantic classification, stable combination, figurative meaning, metaphor, cognitive metaphor, cognitive connotation, meaning.

“Qutadg‘u bilig” ilk badiiy doston bo‘lib, XXI asr ijtimoiy-siyosiy qarashlari, madaniy turmush tarzi ta’sirchan uslubda aks ettirilgan nodir manbadir. Asarning o‘z davrida mashhur bo‘lgan, bir qator xalqlarning harbiy tizim, jamiyatni boshqaruv, hukmdorlik siyosatida keng tatbiq etilgan. Tadqiqotchi M. Xolmuradova “Qutadg‘u bilig”ning olimlar tomonidan tabdil qilingan barcha nomlarini jamlab, “Baxt keltiruvchi bilim” (H.Vamberi, V.V.Radlov, R.R.Arat, V.Tomsen), “Baxt kitobi” yoki “Baxtli boshqaruv” (S. ye.Malov), “Podshohlikka eltuvchi bilim” (V.V.Bartold), “Boshqaruv ilmi” (A.A.Valitova), “Baxt beruvchi bilim” (A.N.Kononov, S.N.Ivanov), “Baxtlilanish bilimi” (A.Fitrat), “Saodatga yo‘lovchi bilim” (Q.Karimov, B.To‘xliiev), “Baxt beruvchi kitob” (Li Chi), “Saodatnoma” (N.Karimov), “Saodat bergan bilim” (Q.Munirov), “Baxt– ezgulik kitobi” (Li Chi), “Qut berguchi, qutlantirg‘uchi bilim” [Sodiqov, 2010] (Q.Sodiqov) kabi nomlar bilan yuritilganini qayd etadi. Doston matnidagi *qutad*=, *qutud*= shaklidagi so‘zlarning “Древнетюркский словарь”da “baxtli bo‘lmoq” («становиться счастливым») [DTS,1969:472] tarzida izohlanganiga asoslanib, asar nomini “Baxtli bo‘lish ilmi” deb izohlaydi [Xolmuradova, 2019:15]. Ilk badiiy doston nomining har xil talqin qilinganining o‘ziyoq asar mazmunining xilma-xilligini, olam hodisalari, dunyoqarash, ijtimoiy-madaniy turmush tarziga oid ko‘plab masalalarni o‘rtaga tashlaganini asoslaydi.

“Qutadg‘u bilig” matni voqea-hodisalar ta’sirchan aks ettirilgani, qahramonlar nutqda obrazli ifodalarning ko‘p berilgani, dunyo hodisalari haqida falsafiy mushohadalar tilning badiiy imkoniyatlari orqali to‘laqonli ochib berilgani bilan ham e’tiborga molikdir.

Asarda ko‘p ma’nolilik, omonimiya, sinonimiya, antonimlik yordamida qahramonlar xarakteri, olam manzarasining real va tafakkur manzaralari yoritilgan.

O‘zbek tili frazeologizmlarining tarixiy variantlari mumtoz tarixiy-badiiy asarlar matnida saqlanib qolgan. Tarixiy frazemalar jamlangan manbalardan biri “Qutadg‘u bilig” asaridir. “Qutadg‘u bilig” tilining o‘ziga xosligini, badiiy ta’sirchanligini ta’minlovchi omillardan biri frazemalardan mahorat bilan foydalanilganida namoyon bo‘ladi.

Frazemalarning yuzaga kelishi va shakllanish jarayoni tilning ma’lum rivojlanish bosqichiga o‘tgan davrlariga xosdir, deyish mumkin. Frazemalar birdan ortiq leksemalarning yaxlit bir ko‘chma ma’noni ifodalash uchun xoslangan ko‘rinishi bo‘lib, inson birikma hosil qilish, obrazli tafakkur mahsullarini nomlash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan davrlarga mansubdir. Frazemalar inson tafakkuri, fikrlash tarzining muhim jihatlarini o‘zida namoyon etadi. Shu bois har bir tilda qalq qo‘llangan frazemalarni jamlash va tahlil qilish tilning ichki qonuniyatlarini yoritishda, leksemalar o‘rtasidagi mazmuniy aloqadorlikni yoritishda va narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat, faoliyat-jarayonni ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

O'zbek tili frazeologiyasi tarixiy taraqqiyot bosqichlaridan o'tib, rivojlanib kelmoqda. Frazeologiyaning nazariy masalalarini hal qilishda, uslubiy-semantik xususiyatlarini yoritishda Sh.Rahmatullayev [Rahmatullayev,1966], A. E. Mamatov [Mamatov, 1991], B.Yo'ldoshev [Yoldoshev,1998, 1999] kabi olimlarning xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim.

“Qutadg‘u bilig”dagi ko‘chma ma’no, metafora, ko‘p ma’nolilik, ta’sirchanlik, badiiy ifoda tahlillari amalga oshirilgan tadqiqotlarda barqaror birikmalar izohi borasida ham fikr-mulohazalar bildirilgan [Kasiyeva, 2005].

“Qutadg‘u bilig”dagi frazemalar quyidagi semantik guruhlariga mansub:

1.Shaxs e’tiqodi, diniy tafakkurini ifodalovchi frazemalar. *Bajat hukmiñä koz* – Olloh hukmiga havola: *Bajat hukmiñä koz qamuy işlärig, özi kelsä etliür aèar ej tirig* / Hamma ishni Xudo hukmiga havola qil, kezi kelsa bitadi (uni o‘zi) hal etadi, ey tirik / (QBN 178a)¹. Bu frazema “Ollohning inoyati bilan”, “xudo xohlasa” degan ma’nolarni anglatadi. *Bajat hukmiñä koz* frazemasini insonga qarata aytilgan bo‘lib, barqaror birikma orqali barcha ishlarning qay tarzda sodir bo‘lishi va amalga oshishi “ollohning hukmiga havola” ekanligi uqtirilmoqda. Ya’ni Ollohning (Bayatning) xohishiga ko‘ra amalga oshishi aytilgan.

Ushbu baytdagi *ey tirik* murojaat shakli insonga nisbatan qo‘llanib, hozirgi o‘zbek tilida faol qo‘llanadigan “jonzo‘t”, mumtoz adabiy manbalarda uchraydigan “hayvon” ma’nosini aks ettirgan. *Hayvon* leksemasi hozirgi o‘zbek tilida semantik jihatdan faqat ongsiz mavjudotga nisbatan qo‘llanadi. Mumtoz manbalarda *hayvon* so‘zi keng ma’noda barcha tirik mavjudotlarga nisbatan ishlatilgan, “tirik”, “tiriklik”, “hayot” ma’nolarini ifodalagan. “Tiriklik suvi” ma’nosidagi *obi hayvon* forsiy izofasi ham shundan dalolat beradi. *Hayvon* arabcha so‘z bo‘lib, bu so‘z kirib kelguniga qadar shu so‘z anglatgan ma’nodagi *tirik* so‘zi qo‘llangani Yusuf Xos Hojibning yuqoridagi baytidan ham ko‘rinib turibdi.

Ayrim barqaror birikmalar shaxsni vaziyatga real qarashga, qismatga, taqdirga tan berishga da’vat etadi. Masalan, *qazaqa bojun ber*= “taqdirga tan bermoq”: *Negü kelsä tapla kör edgü esiz, bojun ber qazaqa köni tut aäiz* /Yaxshimi, yomonmi, nimaiki boshingga tushsa, rozi bo‘l, taqdirga tan ber, rost so‘zli bo‘l (QBK 687). Inson xursandchilikda ham, xafagarchilikda ham sodir bo‘lganlarga tabiiy holat sifatida yondashishga targ‘ib qilinadi. Bu o‘git insonni sabrli, irodali, chidamli bo‘lishga, tushkunlikka tushib qolmaslikka chorlaydi.

2. Shaxs tafakkuri, idroki, ruhiyati bilan aloqador tushunchalarni ifodalovchi frazemalar. *Jitig qil közüg* frazemasini “e’tiborli bo‘lmoq, diqqat qaratmoq” ma’nolarini ifodalaydi: *Bü tört neñ üzä sözlädim men sözüg, oqıza açilyaj jitig qil közüg* / Bu to‘rt narsa uzra so‘zladim so‘zim, o‘qilsa ma’nosi ochilgay, e’tiborli bo‘l (QBH 2213). *Jitig qil közüg* frazemasining so‘zma-so‘z ma’nosi hozirgi “ko‘zni yirik ochish” ma’nosiga

¹ Misollar “Qutadgu bilig” ning quyidagi nashridan olindi: Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. –Тошкент: Фан, 1972.

teng keladi. Bu o‘rinda *ko‘z orqali ko‘rish* diqqatni jamlash, ong orqali ko‘rishni, ya’ni idrok etishni bildirib kelgan. Muallif ushbu frazema orqali aytilgan so‘zga, fikrga e’tiborli bo‘lish lozimligini ta’kidlagan.

3. Shaxsning ruhiy holatini ifodalovchi frazemalar. “Qutadg‘u bilig”da tashqi olam, jarayonlar, voqea-hodisa mahorat bilan tasvirlanganidek, qahramonlarning ichki olami, ruhiyati ham sinchkovlik bilan aks ettirilgan. Bir qator frazemalar shaxs ruhiyati, ichki kechinmalari bilan aloqador tushunchalarni anglatadi. Masalan, *közi qaši tüg*= frazemasida hozirgi *qosh-qovog‘ini solmoq* barqaror birikmasi ma’nosiga teng keladi: *Közi qaši tügmiş, açitmiş jüzin* / Ko‘zi, qoshi tugdi, yuzini burishtirdi (QBH 4410). Frazemadagi *közi-qaš* juftligi hozirgi o‘zbek adabiy tilida *qosh-qovoq* juftligi semantikasi orqali ifodalanadi. *Közi qaši tüg*= iborasiga muqobil bo‘lgan *qosh-qovog‘i solinmoq* (yoki *osilmoq*) frazemasida ishlatilib, “norozilik yoki xafalik ifodalab xo‘mraymoq” ma’nosini ifodalaydi [O‘TIL, 2006: 353]. *Qovoq-dimog‘ qilmoq* iborasi ham shu ma’noda qo‘llanadi.

Baytda *jüz açit*= frazemasida ham ishlatilgan bo‘lib, hozirda qo‘llanadigan *yuz burushtirmoq* barqaror birikmasiga mazmun jihatdan muvofiqdir.

“Ko‘ngli og‘rimoq” ma’nosidagi *köñül aări*= shaxsning biror munosabatdan ranjiganini, ozorlanganini bildiradi: *Erig sözlämägil kişikä tilin, erig sözkä aärir köñül keč jilin* / Kishilarga tilingda qo‘pol so‘zlamagin, qo‘pol so‘z ko‘p yillar mobaynida kishining ko‘nglini vayron qiladi (QBK 2001). *Ko‘ngli og‘rimoq* hozirgi o‘zbek tilida “ranjimoq”, “noroz bo‘lmoq” ma’nolarida qo‘llanadi. Frazema ma’nosi kognitiv metaforaga asoslangan bo‘lib, *og‘rimoq* so‘zining ko‘chma ma’nosi markaziy o‘rin tutadi. Kognitiv metafora moddiy tana a’zolaridagi og‘riq holatining mavhum, umumlashtiruvchi *ko‘ngil* so‘ziga ko‘chirilishiga asos bo‘lgan. *Ko‘ngil og‘rishi* qo‘pol, dag‘al so‘zlash oqibatida yuzaga keladigan jarayon sifatida qaralgan:

köñül aärittur – kongil og‘ritmoq. *Tüpi jel turur söz köñül aärittur* / So‘z bo‘ronli izg‘irin kabidir, dilni (teshib o‘tib) zirqiratadi (QBK 2546). *Ko‘ngli og‘rimoq* frazemasida hozirgi o‘zbek tilida deyarli qo‘llanmaydi. Unga muqobil ravishda *dili og‘rimoq* [O‘TIL,2006:613] barqaror birikmasi ishlatiladi. *köñül aări*= frazemasining hozirda *dili og‘rimoq* tarzida ishlatilishi frazemalar taraqqiyotida tarkib jihatdan o‘zgarishlar yuz berganini asoslaydi. O‘zlashma so‘zlar tilning lug‘at sathiga erkin ravishda kirib kelishi bilan bir qatorda, frazemalar komponentlariga ham o‘zlashgan. *Köñül aări*= frazemasining har ikki komponenti turkiy so‘zdan iborat. *Dili og‘rimoq* barqaror birikmasi komponentining birinchi so‘zi – *dil* birligi *köñül* so‘zining forschatojikcha muqobili hisoblanadi. Qiyos: o‘zbek shevalarida “kimdir tufayli bezovta bo‘lmoq” ma’nosidagi *dastidan tinmoq* iborasi qo‘llanadi. Eski o‘zbek tilida bu barqaror birikmaning *ilkidan tinmoq* ko‘rinishida ishlatilgani kuzatiladi: *ilik* – qo‘l (turkiy so‘z); *dast* – qo‘l (forscha-tojikcha so‘z).

Baş aäriä bol= “mashaqqat bo‘lmoq”, tashvish bo‘lmoq: *Bezüg ištä tejsiz baş*

aãriã bolur, baš aãriã kötürmäsä beglik qalur /Buyuk ishda beqiyos mashaqqat bo'ladi, mashaqqatni tortmasa beglik tanazzulga yuz tutadi (QBN 109a). *Baš aãriã* "tashvish" degan ma'noni bildiradi. *Baš aãriã bol*= bosh, ya'ni o'y, fikr bilan bog'liq muammolarga nisbatan qo'llangan. Bu frazema katta ishlarni amalga oshirishdagi qiyinchilikni, umumiy ma'noda, mashaqqatli jarayonni anglatadi. Hozirgi kunda ushbu frazemada "ortiqcha mashaqqat, g'alva keltirish" ma'nosi ustunlik qiladi. *Boshini og'ritmoq* "bo'lar-bo'lmas ish, harakat, ran va sh. k. bilan joniga tegmoq, bezor qilmoq" [O'TIL, 2006:337]. Shu frazemaga sinonim hisoblangan *boshini qotirmoq* "uzoq va jiddiy o'ylamoq; tashvish chekmoq" ma'nolarida betaraf uslubda qo'llanadi.

4. Muloqot xulqiga oid frazemalar. Nutq madaniyati, muloqot odobi o'zbek madaniyatida har bir davrda dolzarb masala sifatida qaralib kelgan. "Qutadg'u bilig"da kishilar o'rtasidagi muloqot xulqi, so'zlash odobi, fikrni verbal vositalar orqali ifodalash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu borada barqaror birikmalar uslubiy, ta'sirchan ifodalarga xizmat qilgan. Masalan, *tili ačit = tilin achitmoq* frazemasini "qo'pol gapirmoq", "dag'al so'zlammoq" ma'nolarini anglatadi: *Sözün söksä jalnuq ačitsa tilin* / So'zida so'kib gapirsa va tili bilan ranjitsa / (QBN 1929). *Tili ačit*= frazemasini hozirga qadar iste'moldan chiqqan. Unga muqobil sifatida hozirgi o'zbek tilida *achchiq gapirmoq* birikmasi ishlatiladi. *Tili ačit* = frazemasidagi kognitiv metafora, ta'sirchanlik, uslubiy bo'yoqdorlik birikmada to'liq aks etmaydi.

5. Shaxs xatti-harakati, faoliyati bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi frazemalar. *Yol tut*= tanlamoq: *Aëuryu bulariy jolın tutsä ked anın jolqa kirsä bojun egsä ked* / Bularni ochiqitirish kerak, toki yaxshi yo'l tutsinlar, shu tufayli yo'lga kirib, mutlaq bo'yin egsinlar (QBV 180). Baytda *jolqa kir*=, *bojun eg*= barqaror birikmalari ham qo'llangan bo'lib, ezgu faoliyatni tanlash jarayonini ta'sirchan ifoda etgan.

Ešig et= frazemasini "tadbir ko'rmoq" ma'nosini bildiradi: *Bu Aj toldi özkä kör et[t]i eşig, adaštı keñästi bir atlıy kişig* / Oyto'ldi o'z ishining tadbirini ko'rди, taniqli bir odam bilan do'stlik bog'ladi, u bilan maslahatlashdi (QBK 1915). *Ešig et*= barqaror birikmasi "reja tuzmoq", "kengashmoq" ma'nolarini ham ifodalagan.

Adl jürit= frazemasini "Qutadg'u bilig"dagi bosh masala – "adolat bilan ish tutmoq" tushunchasini ifodalagan: *Adl turur tüz jüritmāk* / Birinchisi adolatni to'g'ri yuritmoqdir (QBH 320).

Davlät qapüy ač= "davlat eshigini ochmoq", "baxtga, saodatga eltmoq" ma'nolarida kelgan: *Bu qul kün at ađyır bu yer suv qamuy, eligdın tegib ačti davlät qapüy* / Bu qul, cho'rilar, otlar, ayg'irlar, bu yer-suv barchasi hukmdordan tegib (davlat) senga (baxt) eshigini ochdi (QBN 207b). Barqaror birikma hukmdor tomonidan in'om etilgan qul, cho'rilar, otlar, ayg'irlar, yer-suv kabilarning shaxs moddiy ta'minotini yaxshilashiga nisbatan qo'llangan.

Frazeologizmlar lug'atining qayta ishlangan va to'ldirilgan nashrida bir qator tarixiy frazemalar ham izohlangan [Rahmatullayev, 2022]. Tarixiy frazemalarni

o'rganish, hozirgi o'zbek tili bilan qiyoslash quyidagilarda ahamiyatlidir:

1. Frazemalar til sohibi tafakkuri, narsa-hodisa, voqea-hodisaga munosabati va bergan bahosini o'zida to'liq namoyon etadi.

2. Badiiy asar matnida muallif tafakkur darajasi bilan bog'liq ravishda ifodalangan frazemalar ham qo'llangan bo'lib, tarixiy muhit, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarash haqida axborot berishga xizmat qiladi.

3. Tarixiy frazemalar ko'chma ma'noga asoslangan barqaror birikma bo'lib, kognitiv konnotatsiyaning muhim belgilarni aks ettiradi.

“Qutadg'u bilig”dagi frazemalar Yusuf Xos Hojibning mutafakkir sifatidagi qarashlari, faylasuf, olim sifatidagi mushohadalari, til imkoniyatlarini yaxshi anglagan va mahorat bilan qo'llagan ijodkor sifatidagi qiyofasini namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. DTS – Древнетюркский словарь. –Л., 1969. –Б.472-474.
2. Йўлдошев Б. Фразеология тарихидан лавҳалар. –Самарқанд: Суғдиёна, 1998. –110 б.
3. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. –Самарқанд: СамДУ, 1999. –200 б.
4. Касиева А. Лексико-семантический анализ метафор “Кутадгу билиг”. – Бишкек, 2005.
5. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент: Фан, 1991. –274 б.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. –Тошкент: Фан, 1966. –262 б.
7. Rahmatullayev va boshqalar. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. –Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. –676 b.
8. Sodiqov Q. Mangu qumaru // “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi. – №50. –Toshkent, 2010.
9. Холмурадова М. “Кутадғу билиг” лексикаси. Филол. фан. фалс. док. (DSc) ...дисс. –Тошкент, 2019.
10. Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадғу билиг. –Тошкент: Фан, 1972.
11. О'ТIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – 672 б.
12. О'ТIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – 608 б.